

**O'ZBEKISTONDA SAFARI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH  
YO'LLARI**

*Ro'ziev Bobir Akramovich*

*Qarshi davlat universiteti doktoranti*

*э-mail: ruzievb053@gmail.com*

*ORCID NO: 0009-0001-1486-9749*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonda safari turizmining rivojlanishiga bag'ishlangan. Maqolada ushbu turizm turining asosiy jihatlari, jumladan, ekologik barqarorlik, mahalliy aholini jalb qilish va tabiatni saqlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Yaqin oradagi safari turizmi tendentsiyalari va imkoniyatlari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan, shuningdek, sayohatchilar va mahalliy aholi o'rtasida ekologik savodxonlikni oshirishning ahamiyati ta'kidlangan. Maqolaning maqsadi O'zbekistonda mahalliy amaliyotlar va resurslardan foydalangan holda barqaror safari turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdir

**Kalit so'zlar:** Safari turizmi, Ekologik barqarorlik, Barqaror rivojlanish, Ekologik savodxonlik

**Abstract:** This article focuses on the development of safari tourism in Uzbekistan. It examines key aspects of this type of tourism, such as ecological sustainability, involvement of local communities, and opportunities for development and nature conservation. The article presents information on current trends and prospects for safari tourism in the region while emphasizing the importance of raising ecological awareness among tourists and local populations. The aim of the article is to identify opportunities for sustainable safari tourism development in Uzbekistan, relying on local practices and resources.

**Key words:** Safari tourism, Ecological sustainability, Sustainable development, Ecological awareness

**Аннотация:** Статья посвящена развитию сафари-туризма в Узбекистане. Рассматриваются ключевые аспекты этого вида туризма,

такие как экологическая устойчивость, вовлечение местного населения, а также возможности для развития и сохранения природы. В статье представлена информация о текущих тенденциях и перспективах сафари-туризма в регионе, а также подчеркивается важность повышения экологической грамотности среди туристов и местного населения. Цель статьи — выявить возможности для устойчивого развития сафари-туризма в Узбекистане, опираясь на местные практики и ресурсы.

**Ключевые слова:** Сафари-туризм, Экологическая устойчивость, Устойчивое развитие, Экологическая грамотность

### **Kirish**

Safari turizm — atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, yovvoyi tabiat qurshovida dam olishni anglatadi. Ushbu turizm turi, sayyohlar uchun nafaqat ko'zni quvontiradigan manzaralar, balki unutilmas tajribalar va yangi bilimlarni taklif etadi. Bugungi kunda, safari turizmining rivojlanishi nafaqat global, balki mahalliy darajada ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, safari turizmi rivojlangan davlatlaridagi tajribalarni, ularning muhim jihatlarni va O'zbekistonda ularning tatbiqi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni ko'rib chiqamiz.

### **Usullar**

Ushbu tadqiqot uchun turizm va sayohatlar kengashi, Statistik agentliklar va boshqa mahalliy va xalqaro manbalardan foydalanildi. Maqolada COVID-19 pandemiyasidan keyin sayyohlar qiziqishining oshishi, ekologik turizmga bo'lgan talablarning qanday rivojlanayotganligi hamda xorijiy amaliyotlarning samaradorligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. BMTTD, Rossiya va boshqa mamlakatlardagi qo'riqxonalar tizimlari statistik ma'lumotlari tahlil qilinadi.

### **Natijalar**

Safari turizmi sohasida global tendensiyalarni o'rganish, sayyohlar qiziqishining qanchalik o'sayotganini ko'rsatadi. Masalan, 2023-yilda Rossiya mamalakatida federal ahamiyatga ega bo'lgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga 14,5 million kishi tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan

500 ming nafarga ko'pdir. "Yandeks" ilovasi orqali, 2024-yil fevral oyida yovvoyi tabiat qo'ynida dam olishni xohlovchilar soni 5000 dan ortiq so'rovni tashkil etgan. Bu, 2023-yilga nisbatan 44 foizga oshgani ko'rinadi.

O'zbekistonda ham turizm sohasida ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. 2024-yilning yanvaridan iyulgacha bo'lgan davrda O'zbekistonga 4,2 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 15,3 foizga oshgan. Shuningdek, MDH davlatlarida BMTTD ko'magida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishga qaratilgan dasturlar kelajakda mahalliy aholini ham ish bilan ta'minlashga yordam beradi.

### **Muhokama**

Safari turizmi rivojlanishini ta'minlashda mahalliy jamoalar, ekologik barqarorlik va ekologik ma'rifat kabi asosiy tarkibiy qismlar muhim ahamiyatga ega. Ekologik ma'rifatning yetishmasligi ko'p hollarda tabiatga zarar yetkazishga olib keladi. BMT tomonidan ishlab chiqilgan "Inson va biosfera" dasturi o'zida sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi mas'uliyatli muomala va ekologik ongini oshirish maqsad etadi. Ushbu dastur butun dunyo bo'ylab 25 ta qo'riqxonada, jumladan, O'zbekistonning mahalliy tabiiy hududlarida amalga oshirilishi mumkin.

Ekologik turizm sohasida Avstraliya tajribasi ham o'rganishga arziydi. 2018-yilda u yerda o'rnatilgan agentliklar orqali 23 mingdan ortiq mahalliy aholini ish bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi. Bu tajriba boshqa mamlakatlarda o'rganilish va tatbiq etilishi kerak, chunki u ekologik turizmnining barqarorligini ta'minlaydi va mahalliy aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

Mintaqaviy miqyosda sayohatlarning ko'payishi yangi iqtisodiy imkoniyatlar, masalan, qishloq xo'jaligida, mahalliy produktsiyalarni sotish, o'zidan o'zi barqaror jamoa bilan bog'liq xizmat tarmoqlarini rivojlantirishda yordam beradi. Sayyohlar uchun ajratilgan tabiiy joylar, nafaqat ekologik barqarorlikni, balki hayotiy sifatni ham oshiradi.

## **Xulosa**

O'zbekistonda safari turizmiga yanada e'tibor qaratish va xorijiy tajribalarni o'rganish orqali bu sohani rivojlantirish mumkin. Sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash va tabiiy resurslarni barqaror ishlatish maqsadlariga erishiladi. Ekologik bilimlarni shakllantirish, sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, kelgusidagi barqaror rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Sayohatchilarning tabiiy muhitga nisbatan mas'uliyatli yondashuvini shakllantirish, bu sohada O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshiradi.

## **Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.01.2024 yildagi PQ-21-son
2. Qodirov, R. (2020). "O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi: muammolar va imkoniyatlar". O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Tashkent.
3. Karimov, X. (2019). "Ekologik barqarorlik va uning turizmga ta'siri". Ekologiya va Tabiyatni muhofaza qilish jurnali, 3(1), 45-52.
4. <https://researchhub.wttc.org/product/world-economic-impact-report>
5. <https://www.euronews.com/travel/2023/04/21/post-covid-revenge-travel-has-gone-big-and-the-revenge-is-sweet>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/31/ecotourism/>
7. <https://www.undp.org/ru/belarus/stories/ekoturizm-otkryvaet-novye-ekonomicheskije-vozmozhnosti-dlya-sokhraneniya-bioraznoobraziya-i-ustoychivogo-mestnogo-razvitiya>
8. <https://www.undp.org/ru/belarus/stories/ekoturizm-otkryvaet-novye-ekonomicheskije-vozmozhnosti-dlya-sokhraneniya-bioraznoobraziya-i-ustoychivogo-mestnogo-razvitiya>
9. <https://murmuration-sas.com/>